

**SAMARQAND TARIXIY JARAYONLARINI O'RGANISHGA BAG'ISHLANGAN
TADQIQOTLAR (YUDJIN SKAYLER ILMIY FAOLIYATI MISOLIDA)****Imomov Ulug'bek Ismoilovich****Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti****“Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrası tayanch doktoranti****E-mail: imomovulugbek59@gmail.com****Orcid: 0009-0004-8346-6179****<https://doi.org/10.5281/zenodo.18698295>**

Annotatsiya: “Buyuk o‘yin” (Angliya – Rossiya raqobati) doirasida shakllangan Britaniya ilmiy izlanishlari mintaqada Rossiya imperiyasi hukmronligi o‘rnatilganidan keyin ham siyosiy diskursdan uzilmagan. Mazkur tadqiqotlarda, ayniqsa, imperiyaning mustamlakachilik siyosatini qiyosiy tahlil qilish hamda Rossiyaning harbiy-siyosiy ekspansiyasini baholash masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz mualliflari tomonidan Samarqand tarixiga bag‘ishlab yaratilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan asarlar bugungi zamonaviy tarixshunoslikda shahar o‘tmishini o‘rganishda muhim va ishonchli manbaviy asos vazifasini bajaradi. Ularning ilmiy qiymati va manbashunoslik ahamiyati yuqori ekani ta’kidlanishi mumkin. Mazkur maqolada Yudjin Skayler asarlarida Samarqand tarixining yoritilishi bilan bog‘liq manbaviy ma’lumotlar tahlil qilinib, ularning tarixiy-analitik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, Yudjin Skayler, Turkiston, Cho‘pon-ota tepaligi, Ikkinchi Renessans, tarixiy yodgorliklar, tarixshunoslik.

Kirish. Ingliz diplomatik muhitida faoliyat yuritgan va tarixshunos sifatida ham tanilgan Yudjin Skayler Markaziy Osiyoga amalga oshirgan safarlari hamda ularning natijasida yaratilgan tasviriy-analitik qaydlari bilan tarixiy adabiyotda alohida o‘rin egallaydi. U XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga tutash davrda Rossiya imperiyasi hududida AQSh konsuli sifatida xizmat qilgan hamda mintaqaning qator shaharlariga tashrif buyurgan. Uning 1876-yilda chop etilgan *“Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qan, Buxoro va G‘ulja bo‘ylab sayohat yozuvlari”* nomli asari Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi [1].

Rossiyadagi AQSh diplomatik vakolatxonasida faoliyat olib borgan Skayler Markaziy Osiyoga ikki marotaba safar uyushtirgan bo‘lib, har ikkala tashrif yakunlari asosida ikki jildidan iborat tadqiqotini nashr ettirgan. Asarning birinchi jildida, xususan, Toshkent shahrining shaharsozlik xususiyatlari, ma’muriy tuzilishi va obodonlashtirilishi, mahalliy elita vakillari, aholining ijtimoiy tarkibi va kundalik hayoti, milliy o‘yinlar hamda sport mashg‘ulotlari, diniy va madaniy muhit, ta’lim tizimi, savdo-sotiq va bozor infratuzilmasi kabi masalalar keng yoritilgan. Shuningdek, Samarqandning tarixiy-me’moriy obidalari, ularning kelib chiqishi va tarixiy ahamiyati, sug‘orish tizimlari, gidrotexnik inshootlar hamda dehqonchilikda ekinlarni almashlab ekish amaliyoti ham batafsil tahlil qilingan [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Toshkentdan Samarqand yo‘nalishida safar qilgan Yudjin Skayler o‘z qaydlarida yo‘l-yo‘lakay uchragan hududlarning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy o‘tmishi hamda irrigatsiya tizimlarini mufassal tasvirlaydi. Xususan, Jizzax va O‘ratepaning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi jarayonlarini bevosita kuzatganini qayd etib, mazkur voqealarni aniq geografik tavsiflar bilan boyitadi. Muallif hududlarning

relyefi, suv inshootlari va strategik ahamiyatini tasvirlash orqali ularning harbiy-siyosiy jihatdan muhimligini ko'rsatishga intiladi.

Skayler Samarqandga kirish qismida joylashgan Cho'pon tepaligi bilan bog'liq xalq og'zaki rivoyatlarini ham yozib qoldirgan. U mazkur tepalikni shahar homiysi sifatida e'zozlangan avliyo nomi bilan bog'liq muqaddas maskan sifatida ta'riflab, bu yerda cho'ponlar va shu nomdagi avliyoning qabri joylashganini qayd etadi [3]. Cho'pon tepaligi Samarqand tarixida, ayniqsa, Rossiya istilosi davrida muhim strategik nuqta bo'lgan. Jumladan, Konstantin Petrovich fon Kaufman 1868-yil 1-mayda Buxoro amiri qo'shinlariga qarshi aynan shu hududda jang olib borib, ularni mag'lubiyatga uchratgan; 2-may kuni esa shahar deyarli qarshiliksiz taslim etilgan [4].

Skayler o'z asarida Samarqandni tarixiy va madaniy merosi bilan ajralib turadigan muhim markaz sifatida baholaydi. U shaharda mehmonxona infratuzilmasi mavjud emasligini, dastlab unga Muslimxo'ja nomli shaxsning uyida istiqomat qilish tavsiya etilganini, biroq mezbobning yo'qligi sababli yangi va keng pochta binosida to'xtashga majbur bo'lganini yozadi [5]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Samarqand viloyat va okrug markazi etib belgilanganidan so'ng shaharga ko'plab rus amaldorlari hamda harbiylar ko'chib kelgan va 1871-yilda ular uchun shaharning yangi qismi barpo etilgan [6].

Samarqandda rus aholisi uchun ajratilgan yer maydonlari mahalliy aholidan majburiy ravishda sotib olingan bo'lib, amalda bu jarayon teng shart-sharoitlarga asoslanmagan. Qisqa muddat ichida yangi shahar qismi barpo etilib, u yerda rus aholisi uchun turar-joylar, ma'muriy idoralar, shifoxonalar, xiyobon (bulvar), kutubxona, ta'lim muassasalari, hammomlar, kitob do'koni, ibodatxonalar, 69 turdagi savdo do'konlari, bank, harbiylar uyi, muzey hamda turli xo'jalik va iqtisodiy obyektlar qurilgan. 1871-yildan boshlab rus aholisi shaharga ko'chirilgach, iqtisodiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan jamoat binolari asosan shaharning yangi (ruslar istiqomat qiladigan) qismida joylashgani kuzatiladi, eski shaharda esa bu kabi infratuzilma deyarli barpo etilmagan. Natijada mahalliy aholining turmush tarzi avvalgi holicha saqlanib qolgan [7].

Yudjin Skayler Samarqandni Markaziy Osiyodagi eng hayratomuz shahar sifatida baholab, uning tarixiy qiyofasi romantik ruh bilan sug'orilgani, qadimgi davrlardan meros bo'lib kelayotgan buyuklik an'analarini o'zida mujassam etgani va o'ziga xos sirli jozibaga egaligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, Samarqand uzoq asrlar davomida turli xalqlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Skayler, shuningdek, shahar nomining etimologiyasiga to'xtalib, bir necha taxminlarni ilgari suradi. Unga ko'ra, Samarqand qadimda Makedoniyalik Aleksandr tomonidan zabt etilgan So'g'diyonaning poytaxti – Maroqanda (Maracanda) nomi bilan tarixga kirgan bo'lishi mumkin. Biroq lingvistik va tarixiy manbalarda “Samarqand” atamasi qadimgi sug'diy hamda turkiy unsurlar birikmasi sifatida talqin qilinib, “Samar” komponenti balandlik, yuksaklik yoki ravnaq topish ma'nolarini anglatishi qayd etiladi. Shu asosda, “Samarqand” nomi “baland shahar” yoki “yuksalgan maskan” ma'nosida izohlanadi [8].

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Ikkinchi Uyg'onish davrida Samarqand Temuriylar davlati poytaxti sifatida Markaziy Osiyoning yirik siyosiy, ilmiy va madaniy markaziga aylangan. Bu davrda shahar ilm-fan, me'morchilik va san'at taraqqiyoti bilan ajralib turgan, shuningdek, turli mamlakatlardan elchilar, savdo karvonlari va sayyohlar tashrif buyurgani yozma manbalarda qayd etilgan.

XIV-XV asrlarda Samarqand Sharq mamlakatlari bilan bir qatorda, ayniqsa Yevropa davlatlari uchun ham katta qiziqish uyg'otgan markazlardan biri bo'lgan. Shu bois shahar nomi ko'plab yevropalik elchilarning safar kundaliklari va diplomatik hisobotlarida tilga olinadi. Yudjin Skayler o'z qaydlarida Samarqandga yevropalik sayohatchilar tashrifi masalasiga to'xtalar ekan, Ruy Gonzalez de Klavixo davridan keyin bu yerga kelganlar deyarli bo'lmaganini ta'kidlaydi. U 1841-yilda Nikolay Xanikov va Karl Lemann, 1620-yilda rus elchisi Ivan Xoxlov hamda o'tgan asrda rus ofitseri Filipp Yefremov safarlarini istisno tariqasida tilga oladi. Uning fikricha, mazkur davrlarda Samarqandga yevropaliklarning tashrifi juda kam kuzatilgan. Skayler, ayniqsa, Registon maydonidagi me'moriy majmuaning salobati va badiiy mukammalligini alohida e'tirof etib, uni "dunyodagi eng ajoyib arxitektura asarlaridan biri" sifatida baholaydi [9].

U shahardagi tarixiy obidalarni bevosita ko'zdan kechirib, ularning qurilish tarixi va o'sha davrdagi holatini batafsil tasvirlab bergan. Jumladan, Amir Temur davrida amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, shuningdek, Samarqandning Zahiruddin Muhammad Babur faoliyati bilan bog'liq jihatlari haqida ma'lumot beradi. Muallif har bir me'moriy inshootning barpo etilish jarayoni, tarixiy asoslari va ular bilan bog'liq xalq og'zaki rivoyatlariga ham to'xtaladi [10]. Samarqand bozorlari haqida so'z yuritar ekan, Skayler ularning hajmi Toshkent va Xo'jand bozorlari bilan qiyoslaganda unchalik katta emasligini, biroq taxminan 30 ming aholiga ega shahar ehtiyojlari uchun yetarli darajada rivojlanganini qayd etadi [11].

Natijalar va muhokama. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XVIII asr oxirlarida Samarqand bozorlari xalqaro savdo aloqalarining muhim nuqtalaridan biri bo'lib, bu yerga Rossiya, Xitoy hamda Hindistondan turli xil mahsulotlar keltirilgan. O'z navbatida, ushbu hududlarga yomg'ir paltolari, quritilgan mevalar, qora charm va ot go'ngi kabi mahsulotlar eksport qilingani qayd etiladi. Mashhur vengriyalik sharqshunos, sayyoh hamda Britaniya imperiyasi bilan bog'liq maxfiy topshiriqlarni bajargan Arminiy Vamberi 1863-yilda "turk ziyoratchisi" qiyofasida Buxoro va Samarqandga tashrif buyurgan [12]. U o'z asarlarida Samarqand va Buxoroda ishlab chiqarilgan qog'oz mahsulotlariga yuqori baho berib, ularning sifati va qadri haqida ijobiy fikr bildiradi.

Yudjin Skayler esa Samarqand aholisi tarkibining etnik va diniy jihatdan rang-barang ekanini qayd etib, o'zbeklar, tojiklar, yahudiylar va boshqa guruhlar haqida ma'lumot beradi [13]. Unga ko'ra, yahudiylar shaharda alohida ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan, Rossiya imperiyasi ma'muriyati himoyasi ostida yashagan bo'lsalar-da, ularning huquqiy imkoniyatlari boshqa aholi qatlamlariga nisbatan cheklangan edi. Yahudiylarning Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi va joylashuvi ilk o'rta asrlarga borib taqaladi, biroq ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar cheklangan. Asosan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid yozma manbalarda ularning faoliyati nisbatan batafsilroq yoritilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning ikkinchi yarmida yahudiy jamoalari Samarqandda ipak kalavalarni bo'yash va savdoga chiqarish bilan shug'ullangan. Ular shahar hunarmandchiligining ayrim tarmoqlarida yetakchi o'rin tutgan. Jumladan, 1893-yilda Samarqandda hunarmandchilik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan rangli ipak kalavalar savdosi bilan shug'ullangan 31 savdogarning qariyb to'rtidan uch qismini mahalliy yahudiylar tashkil etgani qayd etiladi [14].

Yudjin Skayler o'z qaydlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni bosib olishi natijasida mintaqada siyosiy muhit o'zgarib, Sibir va Orenburgdan qochgan, avval turli hukumatga qarshi harakatlarda qatnashgan rus sarguzashtchilari uchun yangi imkoniyatlar

yuzaga kelganini ta’kidlaydi. U bunday shaxslarni Xo’jandda uchratganini yozadi. Shuningdek, Samarqandga kelishidan oldin vabo kasalligidan vafot etgan, millati polyak bo’lgan va siyosiy ayblovlar sababli Orskka surgun qilingan shaxs haqida ko’p eshitganini qayd etadi. Skayler Samarqandda bir qator muhim siyosiy arboblarni bilan uchrashganini ham bayon qiladi. Jumladan, Abdurahmonxon hamda uning jiyani – Sheralixon bilan bog’liq ma’lumotlarni keltiradi. Muallifning yozishicha, Rossiya hukumati Abdurahmonga yiliga 25 ming rubl miqdorida nafaqa tayinlab, unga Samarqandda siyosiy boshpana bergan [15].

Safar davomida u Samarqandning boy tarixiy-madaniy merosini e’tirof etgan bo’lsa-da, ayrim ijtimoiy va siyosiy masalalarga nisbatan tanqidiy mulohazalar ham bildirgan. Diplomat Rossiya hukmronligi davrida Samarqandning me’moriy obidalari, aholisi tarkibi va savdo hayoti haqida batafsil ma’lumot beradi. U shaharda turli kasalliklarning tarqalganini qayd etadi. Uning fikricha, Zarafshon vodiysi Buxoro amirligining asosiy agrar hududlaridan biri bo’lib, aholi asosan dehqonchilik bilan shug’ullangan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda iqtisodiy qoloqlik va kambag’allik mavjudligini ham ta’kidlaydi. Skayler Markaziy Osiyoda haqiqiy rus harbiy xizmatchisini aynan Samarqandda uchratganini, bunday holat Toshkent va Xo’jandda kuzatilmaganini qayd etib, Rossiya ma’muriyati Samarqandga boshqa shaharlarga nisbatan ko’proq e’tibor qaratganini yozadi.

Xulosa. Yudjin Skaylarning Samarqand haqidagi kuzatuvlari shaharning murakkab, ko’p qatlamli va tarixiy jihatdan boy qiyofasini yoritadi. U bir tomondan shahar o’tmishi, me’moriy merosi va madaniy an’analarga chuqur hayrat bildirsa, ikkinchi tomondan mahalliy aholining duch kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga nisbatan tashvishli munosabatini ham ifodalaydi. Diplomatning nafaqat shahar hayoti, balki Rossiya imperiyasi hududida yashagan rus sarguzashtchilari haqida aniq va faktlarga asoslangan ma’lumotlar keltirgani alohida e’tiborga loyiqdir.

Xususan, u uchrashishni rejalashtirgan, siyosiy sabablarga ko’ra surgun qilingan polyak shaxsning Samarqandga kelishidan avval vabo kasalligidan vafot etganini qayd etadi. Bu holat o’sha davrda, ayniqsa shaharning eski qismida yuqumli kasalliklar keng tarqalganini ko’rsatadi. Mazkur ma’lumotlar sanitariya-gigiyena sharoitlari talab darajasida bo’lmaganini ham anglatadi. Umuman olganda, Skaylarning asarlari Markaziy Osiyo, xususan Samarqandning XIX asrdagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini o’rganishda muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi. Uning kuzatuvlari mintaqa tarixini tadqiq etayotgan olimlar va tarixchilar uchun hanuzgacha dolzarb ilmiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Yudjin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo’qon, Buxoro va G’ulja haqida sayohat yozuvlari. Nyu-York: 1877. – B.: 197.
2. Ziyayeva D.X. O’zbekiston tarixi bo’yicha manbalar va tadqiqotlar (XIX - XX asr boshlari). Toshkent: 2022. – B.: 392.
3. Yudjin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo’qon, Buxoro va G’ulja haqida sayohat yozuvlari. Nyu-York: 1877. – B.: 198.
4. Genri Lansdell. Rossiya Markaziy Osiyosi. 1-jild. London: 1883. – B.: 625.
5. Yudjin Skyler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo’qon, Buxoro va G’ulja haqida sayohat yozuvlari. – Nyu-York: 1877. – B.: 179.

6. Ziyayeva D.X. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Samarqand shahridagi ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat // Samarqand shahrining umumiy madaniy rivojlanish tarixidagi roli. – Toshkent: 2007. – B.: 375.
7. O'sha asar. – B.: 376.
8. Yudjin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'ulja haqida sayohat yozuvlari. – Nyu-York: 1877. – B.: 180.
9. Muxitdinov G.Yu. Samarqand nomi haqida // Samarqand shahrining umumiy madaniy rivojlanish tarixidagi o'rni. – Toshkent: 2007. – B.: 298.
10. Yudjin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'ulja haqida sayohat yozuvlari. – Nyu-York: 1877. – B.: 198.
11. O'sha asar. – B.: 200.
12. Armeniy Vamberi. Markaziy Osiyoga sayohatlar. – London: 1864. – B.: 205.
13. O'sha asar. – B.: 206.
14. Tursunov B.T. Samarqand yahudiylarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) // Samarqand shahrining umumiy madaniy rivojlanish tarixidagi o'rni. – Toshkent: 2007. – B.: 92-94.
15. Yudjin Skayler. Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'ulja haqida sayohat yozuvlari. – Nyu-York: 1877. – P: 204.